

YUNON-BAQTRIYA DAVLATI

*Otarbaeva Malika Ongarbaevna**Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**Tarix fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Yunon-baqtriya podsholigining Salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi, uning mustaqil davlat sifatida rivojlanishi, mamlakatning geografik joylashuvi, boshqa davlatlar bilan savdo munosabatlari, ijtimoiy-iqtisodiy turmushi, shu bilan birga davlatning tarix sahnasidan qanday yakun topishi haqida bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Salavkiylar, Pompey Trog, Baqtriya, Diadot, Yevtidem, quldorlik, Parfiya, ellinizm, Aleksandr Makedonskiy.

Yunon-Baqtriya Salavkiylar davlatidan ajralib chiqish chiqishi xususida tarixchilar Pompey Trog va Justinda o‘zuq-yuluq ma'lumotlar saqlangan bo‘lsa-da bu haqida ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan mavjud tangashunoslik, ayirim xo‘jalik hujjatlari, san’at yodgorliklari, sug‘orish inshotlari va imoratlar qoldiqlari bergen ma'lumotlar asosida bu davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. [1.86]

Vatanimiz xalqlarining salavkiylarga qarshi ozodlik kurashi muvaffaqiyatli yakun topgach, Baqtriya salavkiylar saltanatidan ajralib chiqadi va mil.av. 250—yilda uning davlat mustaqilligi qayta tiklanadi. Uning tarkibiga Baqtriya (hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo, Tojikiston janubi), So'g'diyona (Zarafshon vohasi), hozirgi Afg'onistonning shimoliy, Turkmanistonning sharqiy yerlari — Marg'iyona ham kirgan. Bu davlatning Yunon-Baqtriya deb atalishining boisi shundaki, uning markazi Baqtriya hududlari edi, hukmdorlari esa asosan yunon aslzodalari bo'lgan. Mustaqil Yunon-Baqtriya davlati unga asos solgan, o'zini shoh deb e'lon qilgan Diodot I, uning o'g'li Diodot II davrlarida bir mucha yuksaladi. Bu jarayon Yevtidem I va u boshlab bergen Yevtidemiylar sulolasi boshqaruvi davrida yanada kuchayadi. Baqtriya davlati sarhadi keyinchalik Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eron, shimoli-g'arbiy Hindiston, Sind o'lkasi hududlarigacha kengaygan. Uning xo‘jalik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti ham ancha yuksak darajaga ko'tarilganligidan guvohlik beradi. Shimoliy Afg'onistonning Oyxonum, Tojikistonning Ko‘hnaqal'a, Kaykubodshoh, Surxondaryo viloyatining Dalvarzintepa, Zartepa va boshqa joylarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimda bu shahar - qal'alarda to'laqonli hayot tarzi hukm surganligidan, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik va boshqa kasb turlari ravnaq topganligidan dalolat beradi. Chunonchi yunon olimi Yustin Yunon-Baqtriyani «ming shaharli davlat» deb bejiz ta'riflamagan. Bu davlatning poytaxti Baqtra nomi bilan

atalgan. Bu shahar xalqaro karvon savdosi - Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahasida joylashganligidan, unda savdo-hunarmandchilik sohalari bir muncha rivoj topgan.

Mamlakatning Eron, Xitoy, Hindiston singari o'sha davrning rivojlangan davlatlari bilan olib borgan savdo-tijorat munosbatlari asosan mana shu shahar orqali o'tgan. Shuningdek, eski Termiz, Marv, Kaykubodshoh, Ko'hnaqal'a, Marokanda (Samarqand) singari shaharlarning ham savdo-sotiqning yirik markazlari sifatidagi mavqeyi yuksak bo'lgan.

Yunon-Baqtriya davlati o'zining pul birligiga ega bo'lgan. Oltin, kumush va misdan tanga pullar zarb etilib muomalaga chiqarilgan. Bundan tashqari bu mamlakatda turli xil don ekinlari, serunum yerlarida uzumzor bog'lar ko'p bo'lgan, sharbatli mevalar yetishtirilgan. Bu hol unda dehqonchilik madaniyati o'sganligidan, sun'iy sug'orish inshootlari tizimi keng tarmoq o'tganligidan yaqqol dalolatdir. Garchand Yunon-Baqtriya davlatida quzdorlik munosabatlari mavjud bo'lsa-da, biroq unda erkin dehqon jamoalari mehnati salmoqli rol o'ynagan. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining nisbatan tez o'sishiga, shahrlar hayotining rivojlanishiga muhim turtki bergan.

Yunon-Baqtriya davlatining gullab yashnagan davri mil.avv. III asrning yarmi va mil.avv. II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarining fikricha, Yunon-Baqtriya mulklarining chegaralari doimiy mustahkam bo'lmasdan harbiy-siyosiy sharoitdan kelib chiqib o'zgarib turgan. Mil. avv. III asrning oxirlari O'rta Osiyoning janubidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma'lumotlar beradi. Uning yozishicha, salavkiylar tomonidan Baqtrada qamal qilingan Yevtidem (Yunon-Baqtriya hukmdori) ularning hukmdori Antiox III ga "chegarada ko'chmanchi qabilalar turganligi va ular chegaradan o'tadigan bo'lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og'ir bo'lishi mumkinligin bildiradi. Tadqiqotchilarining fikricha, Polibiy ma'lumot bergen ko'chmanchilar mil. avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun So'g'dni egallagan bo'lib, bu hududlar Yunon-Baqtriya mulklarining vaqtinchalik shimoliy chegarasi bo'lib qoladi. Shuningdek, G'arbiy Hisor tog' tizmalari ham shimoiiy chegaralar bo'lgan bo'lishi mumkin. [2. 85]

Miloddan avvalgi II asr o'rtalariga kelib birqator ichki va tashqi vaziyat taqozosi bilan yuz bergen keskin o'zgarishlar oqibatida Yunon-Baqtriya davlati tushkunlikka yuz tutdi. Buning muhim sabablaridan biri- qo'shni Parfiya davlatining kuchayib ketishi va o'z hududlarini Yunon-Baqtriya hisobiga kengaytirishga intilishi bo'ldi. Bu hol Yunon-Baqtriya davlatini mushkul ahvolga solib qo'ydi. Tez orada Hind yerlari hamda So'g'diyona uning tarkibidan ajralib ketdi. Mamlakatning shimoliy va sharqiy hududlariga esa sharqdan kelgan ko'p sonli katta yuechji qabilalarining hujumi kuchayib, ular asta-sekin Farg'ona, Surxondaryo hududlari sari siljiy boradi. Buning natijasida 120 yilcha mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lgan Yunon-Baqtriya davlati

halokatga uchradi.[3.62-64]

Yunon-Baqriya davlat tizimi Iskandar davrida joriy etilgan siyosiy an'analarga asoslangan . Podsho iqtisodiy harbiy kuchlarga va viloyatlar hokimlariga tayangan edi. Muhim savdo yo'llari bo'yida hharbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan joylarda tayanch istehkomlar va qala-panoxgoxlar qurilgan. Miloddan oldingi III-II asrlarda turli davlatlar o'rta-sidagi nizolar va urushlarga qaramay, shu davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonlarini kuzatish mumkin.(qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va shaharlarning erta davrida) [4.52-53]

O'z vaqtida V.V.Grigorev Baqtriyadagi yunon hokimiysi yagona monarxiya amalga oshirilmay davlatlar uyushmasi (ittifoqi) tomonidan amalga oshirilgani, dastavval, nisbatan kuchlilar, ular orasidan "baqtriyaliklar", keyin esa "ularga tobe bo'lganlar" haqidagi qonunchilikni oldin surgan edi. Hozirgi vaqtda ko'pchilik tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya podsho boshqargan nazorati shimoliy Afg'oniston, janubiy O'zbekiston va Hindikushdan janubdagagi ayrim viloyatlar bo'lganligini e'tirof etadilar. Bu davlatdagi markazlashgan davlatda Diodot I, keyin esa Yevtidem I (ya'ni, mil. avv. III asrning yarmida) kuchli podsho hokimiysi mavjud edi. Mil, avv. II asrning choragidan keyin Yunon-Baqtriyaning podsholigining tajribasiga qadar davlatda mutlaq birlik va tajribalik bo'lмаган [5. 332]

Yakun sifatida shuni aytish joizki, davlatimiz tarixidan o'rin olgan Yunon-Baqtriya mamlakatiga mil.avv III-I asrlar davomida ko'plab hududlari kirganligini, xalqimiz ham shu davlatning yunon boshqaruvi tizimiga amal qilganligin ko'rishimiz mumkun. Lekin, mamlakatga ko'chmachi qabilalar hujumi shu bilan birga toji-taxt uchun kurashlar natijasida mamlakat ham inqirozga uchraydi.

Foydalanilgan a'dabiyotlar:

1. Б. Ешов "Узбек давлатчилиги ва бошқаруви тарихи" Тошкент 2012
2. R.H.Murtazaeva "O'zbekiston tarixi": Toshkent. 2005
3. Q.Usmanov, M. Sodiqov, S.Burxanova. "Özbekiston tarixi". - Toshkent: "IQTISOD MOLIYA", 2006.
4. А.Сагдуллаев, Б.Аминов, У. Мавланов, Н.Наркулов " Узбекистон тарихи давлат ва жамият тараккиёти" Тошкент - 2000
5. A.Sagdullaev " O'zbekiston tarixi" Toshkent 2019